

**Farg'ona Mintakaviy Yo'llarga Buyurtmachi Xizmati Davlat Unitar Korxonasi** (keyingi o'rirlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi) nomidan, amaldagi Nizomiga asosan faoliyat yurituvchi korxona direktori Sh.Po'latorbir tarafdan va **"ТАРАККИЕТТ ИЙКТК"** (keyingi o'rirlarda «Pudratchi» deb yuritiladi) nomidan, amaldagi Nizomga asosan faoliyat yurituvchi direktori Z.Abdullaev ikkinchi tarafdan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi PQ-5072-son qaroriga asosan “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini taminlash bo'yicha qoshimcha chora-tadbirlar” 2022-yil “Tashabbusli byudjet” dasturi doirasida Farg'ona viloyatidagi ichki xo'jalik yo'llarini mahalliy byudjeti mablag'lari xisobidan joriy ta'mirlash ishlari bo'yicha mazkur Shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar: Lot<sup>№</sup> 22110012174516

## 1.TARIFLAR

1.1. Mazkur shartnomada quyidagi tariflar qo'llaniladi:

**ijro xujjatlari** – naturada bajarilgan ishlari yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ishchi chizmalarga muvofiqligi to'g'risidagi yozuvlar bilan birgalikda ob'ekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarning sifatini va ishlarni bajarishda qo'llanilgan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa xujjatlari, berkitiladigan ishlari tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarning yakka tartibdagi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari xamda qurilish normalari va qoidalardida nazarda tutilgan boshqa xujjatlari;

**qurilish maydoni** – mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. Ob'ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi;

**vaqtinchalik inshootlar** – Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan xar qanday tipdag'i vaqtinchalik binolar va inshootlar;

**berkitiladigan ishlari** – sifati va aniqligini keyingi ishlari bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmagan keyinchalik bajariladigan ishlari va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlari;

**shartnoma narxini bo'lib chiqish** – ishlarning xar bir bosqichi va/yoki turlari qiymatini aniq belgilangan xolda shartnoma bo'yicha ob'ektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash (ishlar bajarish va moliyalashtirish jadvallari).

## 2. ShARTNOMA MAVZUSI.

2.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi PQ-5072-son qaroriga asosan “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini taminlash bo'yicha qoshimcha chora-tadbirlar” 2022-yil “Tashabbusli byudjet” dasturi doirasida Farg'ona viloyatidagi ichki xo'jalik yo'llarini mahalliy byudjeti mablag'lari xisobidan joriy ta'mirlash ishlari “Buyurtmachi” topshirigiga asosan **Farg'ona viloyati Buvayda tuman Chutaka MFY si ichki yo'llarini joriy ta'mirlash** ishlarini loyixa-smeta xujjatlarida ko'zda tutilgan xolda bajarish majburiyatini oladi, “Buyurtmachi” esa “Pudratchi”ga ishlarni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

## 3. ShARTNOMA BO'YICH A IShLAR QIYMATI.

- 3.1. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajariladigan umumiy ishlari qiymati barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan xolda joriy narxlarda **690 397 500** (Olti yuz tuksin million uch yuz tuksin yetti ming besh yuz sumni tashkil etadi.

- 3.2. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi

- 3.3 Tegishli asoslar mavjud bo'lganda Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi

## 4.PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI.

4.1. Mazkur shartnoma bo'yicha «Pudratchi» shartnomaning 2-bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

- barcha ishlarni mazkur shartnomaga muvofik ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan xajmda va muddatlarda o'zining kuchlari va yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish xamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofik topshirish;

- zarur xollarda ayrim ish turlarining bajarilishi loyixa-smeta xujjatlarida belgilangan mashina-mexanizmlar o'rniiga, o'rindosh mashina-mexanizmdan foydalanimishi, belgilangan sifat laboratoriysi xulosasi asosida amalga oshirilishi mumkin;

- mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'lik xajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi;

- shartnoma shartlariga asosan ob'ektni buyurtmachiga tasdiqlangan loyixaga muvofiq topshiradi;

- Pudratchi Buyurtmachi oldida yordamchi pudratchi o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligining oqibatlari uchun javobgar bo'ladi.

4.2. "Pudratchi" mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi xamda ob'ektning foydalanshiga tayyor xolda topshirilishi uchun "Buyurtmachi" oldida tulik mulkiy javob beradi.

4.3. Agar berkitiladigan ishlar Buyurtmachining tasdig'isiz bajarilgan bo'lsa yoki u bu xaqda xabardor qilinmagan bo'lsa, yoki kechikib xabardor qilingan bo'lsa, u xolda uning talabi bo'yicha Pudratchi Buyurtmachining ko'rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o'z xisobidan ochishga, so'ngra esa uni tiklashga majburdir.

4.4. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilar tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini arxolda Pudratchi o‘z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko‘paytirmasdan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta‘minlash kelishilgan muddatda o‘z xisobidan qayta bajarishga majburdir, ushbu shartnoma 3.3-bandining ikkinchi xat boshida ko‘rsatilish xollar bundan mustasno.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u xolda ishlarni bajarish daftarda o‘z fikrini bayon qiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko‘rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko‘rish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

## 5. BUYURTMAChINING MAJBURIYATLARI.

5.1. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

- "Pudratchi"ni o‘z vaqtida loyixa-smeta xujjatlari bilan ta‘minlaydi;

- mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab ishlarni bajarish uchun ob‘ektni ishlarni tugallagungacha bo‘lgan davrda dalolatnoma bo‘yicha "Pudratchi"ga beradi;

- ishlarni bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan "Pudratchi" tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rivoja etilishini nazorat qilish, "Pudratchi"dan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta‘minlashni amalga oshiradi;

- ushbushartnomadanazardatutilganmuddatdava miqdorda "Pudratchi"ga xaq to‘laydi;

- "Pudratchi"ningbarchamurojaatlarinio‘n kun muddatda ko‘ribchiqadi.

## 6. TO‘LOV ShARTLARI VA XISOB-KITOBLAR.

6.1. "Buyurtmachi" ushbu shartnomaga asosan "Pudratchi"ning xisob raqamiga shartnomada ko‘rsatilgan qiymatning 30%gacha miqdorida 2-ilovaga asosan avans mablag‘ini o‘tkazadi.

6.2. Joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlarni sifati tekshirilganidan keyin berilgan avansni xisobga olgan xolda, ishlarni bajarish va moliyalashtirish jadvallariga muvofik ob‘ektning umumiyligi shartnomaviy joriy qiymatining 70% miqdorida amalga oshiriladi. 5 foizlik ob‘ekt kafolat muddati tugagandan so‘ng moliyalashtiriladi.

6.3. "Pudratchi"ning boshqa xarajatlari loyixa-smeta xujjatlari ko‘rsatilgan boshqaxarajatlar qiymatidan oshmagan xolda to‘lovga qabul qilinadi.

6.4. Pudratchi ob‘ekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo‘yicha ob‘ektga mulk xuquqini o‘zida saqlab qoladi. Ob‘ekt Buyurtmachiga topshirilgunga qadar ob‘ektning tasodifiy yo‘q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo‘ladi.

## 7. ISHLARNI BAJARISH.

7.1. Pudratchi mazkur shartnoma kuchga kirgancha kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

7.2. "Buyurtmachi" qurilish maydonida o‘z vakilini - texnik auditorini tayinlaydi. U "Buyurtmachi"ning nomidai bajarilayotgai ishlarni sifatiustidan texnik nazoratni amalga oshiradi.

## 8. YENGIB BO‘LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) XOLATLARI.

8.1. Agar ushbu shartnoma bo‘yicha majburiyatlar qisman yoki to‘lik bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshka yengib bo‘lmaydigan kuch xolatlari natijasida kelib chiqsa, tomonlar bunday majburiyatlarini qisman yoki to‘liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

8.2. Pudratchining mazkur shartnomani bajarish uchun boshqa shartlashuvli sheriklari tomonidan majburiyatlarining buzilishi, majburiyatni bajarish uchun zarur tovarlarning bozorda yo‘qligi, Pudratchida zarur pul mablag‘larining bo‘limganligi fors-mafor xolatlariiga kirmaydi.

Mazkur shartnoma bo‘yicha majburiyatlarini bajarish muddati yengib bo‘lmaydigan kuch xolatlari amal qilgan, shuningdek ushbu xolatlari yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.3. Agar yengib bo‘lmaydigan kuch xolatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko‘p vaqtga cho‘zilsa, u xolda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko‘rilishini muxokama qiladilar.

8.4. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u xolda tomonlarning xar biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga xaqlidir.

## 9. KAFOLATLAR.

9.1. "Pudratchi":

- barcha ishlarni to‘liq xajmda sifatlari va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini kafolatlaydi.

9.2. "Pudratchi":

- barcha ishlarni to‘liq xajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;

- loyixa xujjatlariga xamda qurilish meyorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni sifatlari bajarilishini ta‘minlashi lozim;

- o‘zi tomonidan qurilish uchun qo‘llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyixa xujjatlarida ko‘rsatilgan sertifikatlarga, davlat standartlariga xamda texnik shartlarga muvofiqligini;

- ishlarni qabul qilish va ob‘ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchilik va nuksnlarni o‘z vaqtida bartaraf qilishni;

- ob‘ektdan foydalanilganda muxandislik tizimlari va uskunalarining foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi, ob‘ekt va unga kiradigan muxandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallardan foydalanish va ishlarning kafolatli muddati

Onlar qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab kamida bir yil etib agilanadi.

9.3. Agar ob'ektdan foydalanishning kafolatlari davrida aniqlanib, ular bartaraf etilgunga kadar foydalanishni davom etgirish imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u xolda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nuqsonlar "Pudratchi" tomonidan uning o'z xisobidan bartaraf etiladi.

9.4. Agar "Pudratchi" bajarilgan ishlardagi nuqson va chala ishlarni dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u xolda "Buyurtmachi" tomonidan 5%li kafolat summasini "Pudratchi"dan ushlab qolish xuquqiga ega.

9.5. "Pudratchi" nuqsonlar va chala ishlarni ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yo'l qurilish ishlari sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi» tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala bo'yicha iqtisodiy sudiga murojaat qilishdan istisno etmaydi.

## 10. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI.

10.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan takdirda aybdor O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida, boshqa qonun xujjatlarida xamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

10.2. Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rstaigano'z majburiyatlariga rivoja qilmaganligi, ob'ekt xisob raqamiga mablag'lar berilgandan so'ng o'z vaqtida moliyalashirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun "Buyurtmachi" "Pudratchi"ga kechiktirilgan xar bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,4% mikdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlarni yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50% oshmasligi lozim. Penya to'lanishi "Buyurtmachi"ni shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

10.3. "Pudratchi" ob'ektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun "Buyurtmachi"ga muddati o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5% mikdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ob'ekt shartnomaviy joriy qiymatining 50%dan oshmasligi lozim. Penya to'lash "Pudratchi"ni ishlarnibajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

10.4. Agar bajarilgan ishlarni belgilangan standartlarga, qurilish me'yordi va qoidalariga, ish xujjatlariga muvofik bo'lmasa, u xolda "Buyurtmachi" «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yo'l qurilish ishlarni sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi»ning xulosasi asosida ob'ektni qabul qilish va uning uchun xaq to'lashdan bosh tortishi, shuningdek "Pudratchi"dan sifati zarur darajada bo'limgan ishlarni qiyematining 100% gacha miqdorida jarima undirish-xuquqiga ega.

## 11. NIZOLARNI XAL QILISH.

11.1. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar xal etolmasa ular konun xujjatlarida, belgilangan tartibda Iqtisodiy Sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

## 12. SHARTNOMANI BEKOR QILISH

### 12.1. Buyurtmachi:

Shartnoma kuchga kirgandan keyin kurilishning boshlanishi Buyurtmachiga bog'lik bo'limgan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda; ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan xolda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rivoja etilmaganda;

Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yordi va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

qonun ujjatlariga muvofiq boshka asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish xuquqiga ega.

### 12.2. Pudratchi:

ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'lik bo'limgan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda;

Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;

qonun xujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish xuquqiga ega.

12.3. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish 15 kun muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlarni qiyamatini Pudratchiga to'laydi.

12.4. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma beldirishnomasi yuboradi.

12.5. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

12.6. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun xujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan xollar bundan mustasno.

## 13. SHARTNOMAGA KO'SHIMCHA VA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH TARTIBI.

13.1. Ushbu shartnomaga xar qanday kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar yozma ravishda rasmiylashtirilib, xar ikkala taraf imzolagan xollardagina xaqiqiy kuchga ega bo'ladi.

13.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor kilish taraflarning kelishuvni bo'yicha yoxud O'zbekiston Respublikasining amaldagi Fukarolik kodeksi va konun xujjalarda nazarda tutilgan asoslar bo'yicha, yetkazilgan zararlari koplash bilan amalga oshirilishi mumkin.

13.3. Shartnomani bekor kilishga qaror qilgan taraf boshqa tarafga yozma xabarnoma yuboradi.

#### 14. MAJBURIYATLARNI AMALDA BO'LISH SHARTI VA MUDDATI.

14.1. Shartnoma taraflar tomonidan imzolanganidan so'ng Viloyat G'aznachilik Boshqarmasi (bo'limi)da belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tganidan keyin qonuniy kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrigacha amal qiladi.

14.2. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 (Ikki) nusxada tuzildi.

14.3. Mazkur shartnomaga quyidagilar ilova qilinadi:

- 1-lova - Bajarish jadvali.
- 2-lova - Moliyalashtirish jadvali.

#### 14. TARAFLARNING YURIDIK MANZILLARI VA TO'LOV REKVIZITLARI.

##### "BUYURTMAChI"

Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati davlat  
unitar korxonasi

Manzil: Farg'ona sh. Aeroport ko'chasi 1-uy

Tel./faks: +99873-249-50-53

ShG'H 401722860302127045204118003

INN:304 899 935

Farg'ona viloyati G'aznachilikboshkarmasi

YaG'H: 23 402 000 300 100 001010

Bank nomi: Markaziybankning Toshkentshahar

Bosh boshqarmasi Hisob-kitob-kassa markazi (HKKM)


MFO:00014 G'aznachilikbo'linmasining

STIR: 201 122919

Buyurtmachi rahbari

M.O.

Sh.Po'latov



##### "PUDRATCHI"

##### "TAPAKKINETT IJKTK"

Manzil: Yangiqo'rg'on qishlog'i. Do'stlik ko'chasi 5 uy

INN: 202490398

X/R: 20208000903825474001

Bank: ATB Agrobank Yangiqo'g'on Filiali

MFO: 00525

OKNH:42110

Pudratchi direktori



#### XUQUQIY XULOSA

Mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida»gi qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 12.09.2003-yildagi 395-soni qarori va boshqa me'yoriy xujjalarga asoslangan xolda to'g'ri tuzilgan. Shartnoma bo'yicha tomonlar o'rtaсидаги majburiyatlarni bajarish muddati, predmeti, narxi va javobgarlik shartlari kelishib olingan. Shartnomani imzolash mumkin.

Buyurtmachi yuristi

R.Alimov



Farg'ona viloyati Farg'ona viloyati Buvayda tuman Chutaka MFY  
joriy ta'mirlash ob'ektnining \_\_\_\_\_ sonli shartnomasiga 1-  
ilova

### Farg'ona viloyati Farg'ona viloyati Buvayda tuman Chutaka MFY joriy ta'mirlash ob'ektnining

#### Bajarish Jadvali

№	Amalga oshirildigan ishlar	Yillar	Umumiy qlymati	Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	May	Iyun	Iyul	Avgust	Sentyabr	Oktyabr	Noyabr	Dekabr	Ming sum	
1		2022 yil	690 397,500														690397,5
2	Qurilish montaj ishlari	2023 yil	-														
	Hammasi:		690 397,500														



Moliyalashirish Jadvali

Respublika byudjet mablag'larini xisobidan

Farg'onalar viloyati Farg'onalar viloyati Buyavdayda tuman Chutaka MFY joriy ta'mirlash ob'ektingizning

	Условия финансирования	2022											Jami ob'ekt bo'yicha 20222	Jami ob'ekt bo'yicha 2023 yil
		Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	May	Iyun	Iyul	Avgust	Sentyabr	Oktyabr	Noyabr		
1	<u>30% avans</u> harhomadagi umumiy bajarilagan ish xejimi qiyntididan Joriy moliyalashirish												207,119	207,119
2	bajarilgan ishga nisbatan proporsional ravishda ajratigan avansni inbo-batga olgan holda												483,278	483,278
	JAMI:												690,398	690,398
3	Qolgan 5% mablag' kafolat muddati shagadunga qadar												690,398	690,398
	JAMI OB'YEKT BO'YChA													

**"БУЮРТМАЧИ"****"ПУДРАЧИ"**